MAMLAKATIMIZDA MA’NAVIYAT VA MADANIYAT SOHASIDAGI ISLOHATLAR

Primov Sunnatillo Elmurod o’g’li
O’zbekiston Milliy unverteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Milliy g’oya,ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda ma’naviy va ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohatlar hamda amlaga oshirish zarur bo’lgan chora-tadbirlar haqida qiqacha fikr yuritildi.Qolaversa biz uchun yangi islohatlar evaziga Yangi O’zbekistoni barpo etishda ma’naviy va ma’rifiy sohani rivoji ham muhim ekanligi to’g’risida fikr bordi.

Kalit so’zlar: ma’naviyat, ma’rifat, globallashuv, ma’naviy rivojlanish, taraqqiyot, mafkuraviy immunitet, samaradorlig, islohatlar.

Bugun tobora globallashib kelayotgan davrda barcha sohalarda o’zgarish kechayotgan bir pallada, ma’naviyat va ma’rifat sohasida ham bir qancha yirik o’zgarishlar amalga oshirilmoqda.O’tgan davr mobaynida mamlakatimizda ma’naviyat va madaniyatga alohida tarmoq sifatida e’tibor qaratilib, yirik sarmoyalar kirtilayotganligini ko’rishimiz mumkin.Har qanday soha boshqalaridan ajralgan holda yakka o’zi rivojlana olmaydi.Bugun O’zbekistonda miliy madaniyat va ma’naviyatni rivojlantirish masalasiga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzviy va ajralmas qismi qismi sifatida olib qaralmoqda.Ko’p yillar mobaynida bu sohaga juda katta ta’sir bo’lishi va turli xil bosimlar ostida qolib ketishi evaziga anchagina qiyinchiliklar evaziga qayta tiklandi.Chunki boshqa sohalarga nisbatdan eng katta talofat bevosita va bilvosita ham ma’naviyat sohasiga ta’sir etdi.Chunki qarib 70 yildan ortiq Sovet hukmron mafkurasi davrida aynan eng katta zarba ma’naviyat sohasiga zarb berdi.Negaki, madaniyat va ma’naviyat millat taraqqiyoti yo’lidagi nihoyatda ahamiyatli va o’ta nozik soha.Chunki bu soha jamiyatning yuragiga to’g’ridan-to’g’ri ta’sir qiladigan, turli xil yot g’oyalarga qarshi immuntet hosil qiladigan soha hisoblanadi.Har bir insonda tafakkur, fikrlash erkin, mustaqil bo’lishi kerak.Ommaviy tarzda bir xil fikirlash halokatli.Bunda ijod ham, rivojlanish ham bo’lmaydi.Ana shu ma’noda o’ylamasdan taqlid qilish milliy qiyofani, o’zlikni unutishga olib keladi. Ayni paytda dunyoda adabiyoti, madaniyati va sa’natidagi ilg’or, umuminsoniy qadriyatlarga aylangan g’oyalarni o’rganish, o’zlashtirish talab etiladi.Keyingi yillarda madaniyat sohasida ham shaklan, ham mazmunan o’zgarishlarni ko’rayapmiz. Hukmron mafkura mustabid tizimi ta’sirida G’arb madaniyatiga taqlidan rivojlangan mazkur sohani tubdan yangilashga barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Endi ana shu taqlidlardan muhofaza qilish, milliy va ayni paytda umuminsoniy qadriyatlar

asosida rivojlantirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Xususan,Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020- yil 26-maydagi “ O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida “ gi qarori mazkur soha vakillari uchun ham juda katta imkoniyat eshigini ochib berdi[100]. Darhaqiqat insoniyat ma’naviyati va tafakkuri rivojlanish madaniyatsiz kechmaydi. Mamlakatimizda barcha sohalar singari, bu sohada ham turli sabablar bilan yuksalish va depsinish davrini boshdan o’tkazib keldi.Lekin so’nggi yillarda mazkur sohalarini rivojlantirishning yangi bosqichga ko’tarish yuzasidan hukumatimiz tomonidan tub o’zgarishlar olib bormoqda. Bu borada olib borilayotgan muhim o’zgarishlarga qaramasdan, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma’naviy-ma’rifiy islohatlarning samaradorligiga to’siq bo’layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil madaniyat va sa’nat sohasi rahbarlari bilan uchrashuvda shunday ta’kidlagan edi.,, Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak. Mamlakatimizda madaniyat va ma’naviyat taraqqiy etmasa,jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanishi darajasi avvalo milliy madaniaytimizga qarab baholanadi.Shu ma’noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O’zbekistoning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz,buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim ” deb ta’kidlaydilar.Biz uchun go’yoki oddiy soha sifatida olib qaralayotgan Ma’naviyat sohasi faqat soha vakillari uchun kerak va bu sohadagi kamchiliklar soha vakillarini kamchilik sifatida ko’rayapmiz ko’pchiligimiz, lekin aslida bu kamchiliklar faqat soha vakillarini xatosi evaziga emas, ma’lum bir jamiyat a’zolarining barchasining zimmasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, yoki bu sohaga nisbatan sustkashlik qilish evaziga vujudga kelayapdi desak to’g’riroq bo’lgan bo’lar edi deb hisoblayman. Bugun ko’pgina mamlakatlarda bu soha alohida tarmoq sifatida olib qaralmasada, lekin davlat nazoratidan chetda qolib ketmaydi.Chunki davlatning asil qiyofasini aynan mana shu soha orqali belgilab olish jarayoni keygingi paytlarda avj olmoqda. Aynan G’arb mamlakatlarida mavjud bo’lgan ma’naviy ko’rinishni Sharq mamlakatlariga to’g’ridan-to’g’ri kirib kelishi evaziga bu sohani, umuman, bizni milliy ruhdagi qiyofamizni mutloqo boshqacha shakilda shakillanib qolishiga olib kelmoqda.Keyinchalik bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun uzoq vaqt va juda katta qiyinchiliklar to’g’dirmoqda. Chunki bu kabi turli xil ma’naviyatimizga zid bo’lgan yomon illatlar jamiyat orasiga tez singib ketmoqda va tomir yoyib bormoqda. Mana shunday holatlarga duch kelmasligimiz uchun, bugungi kunda mamlakatimizda ma’naviy –ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish aholi,ayniqsa,yoshlarning intellektual salohiyati,ong tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish,mafkuraviy immunitetini

[100]www. Lex.uz.sayti.

mustahkamlash, vatanparvarlik,xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usini bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.Shu bilan birga,jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan,ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik,zararli yot g'oyalar ta'siriga berilishi,jinoyatchilik va ekistremizm harakatlariga adashib qo'shilib qolish holatlari hamon uchramoqda bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida ma'naviy sohada yirik o'zgarishlar olib borilmoqda. Shuningdek ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish, ma'naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf –xatarlarga qarshi samarali kurashish,jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash,davlat va jamoat tashkilotlarning bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko'maklashish maqsadida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga quydagi vazifalar yuklandi.

- Aholi o'rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakillantirish,jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish.
- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy,iqtisodiy,ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy islohatlarning,qabul qilinayotgan qonunlar hujjatlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikga samarali yetkazish.
- oila, mahalla, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoy-ma'naviy muhitni o'rganish va sog'lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish,, mahalla-tuman-viloyat-respublika " prinsipi asosida hududlar kesimida ijtimoiy –ma'naviy muhitni shakillantirish
- ,, Jaholatga qarshi ma'rifat " g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot –tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlari,ta'sirchan,kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish
- tinchlik va osoyishtalikka,mamlakatimizning barqaror taraqqiyotga, qadriyat va urf-odatlarga hamda insonparvarlik g'oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ'ibot ishlarini olib borish
- aholining ijtimoiy-ma'naviy hayotida bunyodkorlik g'oyalarini kuchaytirish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash kabi ustuvor vazifalar yuklandi. Ya'ni yuqoridagi bir qancha yirik o'zgarishlar amalga oshirish boshlab yuborilganligini ko'rishimiz mumkin. Bir so'z bilan aytsak amalga oshirish zarur bo'lgan ishlar juda ham ko'p aynan bu sohalarda.

2021 yil 26- martda muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan,, Ma'naviy-marifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi,, PQ-5040-sonli qarori qabul qilinadi. Bu qaror asosida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri,dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat,fuqarolik jamiyatini barpo etishda,,Milliy tiklanishdan- Milliy yuksalish" sari

degan g’oya hayotbaxsh g’oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu borada olib borilayotgan muhim ishlar quydagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Birinchidan, oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyani uzviyligini ta’minlash;

Ikkinchidan, targ’ibot-tashviqot va tarbiya yo’nalishlaridagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo’yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish,ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

Uchinchidan, geysiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o’rganish,turli xil g’oyaviy kurashlarga qarshi tura olish;

To’rtinchidan, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va sa’natning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish. Mavjud muammolarni hal etish ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, keng ko’lamli va miqyosini yanada kengaytirish,mamlakat aholisi,avvalo,yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvoqlashtirishning yagona tizimi ishlab chiqilmoqda.Ma’naviyat insonning, xalqning, jamiyatning kuch-qudratidir.U yo’q joyda hech qachon baxt-saodat bo’lmaydi.Shunday ekan albbata jamiyat rivojida bu sohalarning o’rni muhim.Ma’naviyat doimo milliy bo’ladi, shu bilan birga unda umuminsoniy qadriyatlarga zid narsa ham bo’lmaydi,chunki har bir millatning mustaqil ma’naviy dunyosi,ma’naviy qiyofasi bir paytining o’zida ichki mohiyatiga,o’zak tomirlariga ko’ra,o’zga xalqlar ma’naviyati bilan umumiy jihatlarga,butun bashariyatni birlashtirib turuvchi mushtarak unsurlarga ega bo’ladi.Ma’naviyatning yuqorida eslab o’tilgan ta’rifini millat ma’naviyat tatbiq etadigan bo’lsak,uni bemalol millat ruhidagi borliq haqiqati bilan uyg’unlik, deb atash joizdir.Shunday ekan, ayni millatimizni o’zga millatlardan ajratib turuvchi mohiyatlar emas,balki birlashtiruvchi omillar milliy ma’naviyat zamirini tashkil etadi.[101]

Bugun ma’naviy va madaniy sohani rivoji uchun muhtaram prezidentimiz,, Shavkat Mirziyoyev,, Yangi O’zbekiston strategiyasi “asarida Biz Yangi O’zbekiston taraqqiyotning hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy,iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga,ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohatlar ham muhim ahamiyatga ega ekanini yaxshi anglaymiz.Biz uchun ma’naviyat –insonlar o’rtasidagi o’zaro ishonch, hurmat va e’tibor,xalq va davlat kelajagini birgalikda ko’rish yo’lidagi ezgu intilishlar,ibratli fazilatlar majmuasidir.Boshqacha aytganda, zarur bo’lgan ma’naviyat –jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir.Bu poydevor qancha mustahkam bo’lsa,xalq

[101] M.Imomnazarov.Milliy ma’naviyatimiz asoslari.Toshkent-2010.B.33-38

ham,davlat ham shuncha kuchli bo’ladi[102]. Xullosa qilib aytadigan bo’lsak bugun biz uchun ma’naviy sohadagi o’zgarishlar juda zarur sanaladi.Har qanday davrda ham o’zbek xalqi barcha xalqlar orasida o’zining yuksak ma’naviyat bilan o’rnak bo’lib kelmoqda.Bir paytlar bu o’lkadan yetishib chiqqan bobokalonlarimiz dunyo ma’naviyat peshtoqida zalvori ranglar bilan o’zning yuksak ma’naviyati evaziga,o’z asalari hamda o’z nomlarini mustahkamlab qo’ygan.Shunday ekan biz mana shunday millat vakillarning a’zolari ekanmiz, biz ham ularga munosib avlod bo’lib o’zimizga xos va mos bo’lgan milliy ma’naviyatimizni shakillantirmog’imiz lozim. Chunki bugun turli xil qarashlar,g’oyalar, mafkuralar orasida o’zaro qarama-qarshiliklar kuchgayib bormoqda hamda turli guruhlar jamiyatda o’z mafkurasini o’rnatish uchun o’rinlash olib borayotgan bir payta mana shunday turli xil salbiy ta’sirlar ostida jamiyat a’zolari qolib ketmasligi uchun mafkuraviy immunitetni mustahkamlashimiz kerak, bu uchun esa albbata ma’naviy sohada ko’proq islohatlar va yirik tadbirlarni amalga oshirishimiz zarur deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M.Yangi O’zbekiston strategiyas.-Toshkent.2021-B.267.
2. M.Imomnazarov.Milliy ma’naviyatimiz asoslari.Toshkent.2010.B.33-38.
3. lex.uz.sayti.
4. ziyonet.uz.sayti.
5. ma’rifat.uz.sayti.

[102] Sh.Mirziyoyev.M.Yangi O’zbekiston strategiyasi.Toshkent-2021.B-267.